

OILA QURMOQ KERAK

Nosirjonov Faxriddin Muxiddin o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi,

Respublika yosh olimlar kengashi a'zosi

E-mail: hazratibobur@gmail.com

Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada XX asrda yashab ijod qilgan muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning "Xotun olmoqni kerakligi", "Uylanmaslikni zarari" maqolasi asosida oila qurishning zarurligi, aksi bo'lsa uning oqibati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z: Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy, Qur'oni Karim, "Xotun olmoqni kerakligi", "Uyanmaslikni zarari", Bibixonim, temuriylar, kasalliklar, OITS, mujarrad.

Olimlarning fikriga ko'ra dunyodagi barcha narsa o'z jufti bilan yaratilgan. Osmon bilan yer, quyosh bilan oy, musbat bilan manfiy, kecha bilan kunduz, erkak bilan ayol va shu kabilar fikrimizning tasdig'idir. Qur'oni Karimda quyidagicha marhamat qilinadi:

نَوْنُمُوِيْلِطَبَبًا بَأَفَا تَبَيِّطَلَانِم مَكْفَزَرُو ءَدَقَحُو نَبِيْب مَكْجُوْرَا نِم مَكْلَل عَجُو اَجُوْرَا مَكْسَفْنَا نِم مَكْلَل عَجُوْلَلَهُ اُو
نَوْرُفَكِيْمُ هَلَلَهُ اَتَمَعْنَبُو

Alloh sizlar uchun o'z'laringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun bolalar va nabiralar paydo qildi hamda sizlarga pok rizqlarni berdi. Botilga imon keltiradilar-u, Allohning ne'matiga kufr keltiradilarmi?!¹

(Nahl surasi, 72-oyat)

Payg'ambar (s.a.v.) hadislarning birida "Uylaninglar, ko'payishinglar, chunki men qiyomat kunida ummatimning ko'pligi bilan faxrlanaman" deb marhamat qiladi. Ko'rinib turibdiki islom ta'limotida ham oila qurishga targ'ib qilingan.

Oila jamiyatning ajralmas qismidir. Bir qancha oila bir mahallani, mahallalar bir tumanni, tumanlar esa viloyatni, viloyatlar butun bir mamlakatni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konistutsiyasi 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bog'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" deb qayd etilgan. Shukrlar bo'lsinki, mamlakatimizda oilalar farovonligi uchun ko'plab islohotlar amalga oshirilib kelinadi. 2003-yilning yurtimizda "Obod mahalla yili" deb nomlanishi ham fikrimizga misol bo'la oladi. Diyorimizda yaratilgan sharoitlardan

¹ Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasini. Shayx Usmonxon Temurxon o'g'li Samarqandiy. Ankara-2021

unumli foydalangan holda yoshlarimiz tinch va farovon oilalarni barpo qilishi zarur. Zero oilalar tinch bo'lsa, vatanimiz ham tinch va farovon bo'ladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda tarixga nazar soladigan bo'lsak, jadid namoyondalaridan biri, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy ham oila qurishning zarurligi masalasida ko'plab ma'lumotlarni yozib qoldirgan. U o'zining "Xotun olmoqni kerakligi" nomli maqolasida "Insonlarga xotun olmoq tabiiydir. Xotun olmasdan yolg'uz yashamoq insonga mumkin yo'q. Har bir erkak va ayol bir-birini yordam va ionati va birga yashmog'iga muhtojdir" deb yozgan edi. Haqiqatdan ham shunday emasmi? Tarixga nazar soladigan bo'lsak, barcha tarixiy shaxslarning ulug' shaxsiyat sifatida shakllanishida o'zining umr yo'ldoshi, otasi yoki onasining sabab bo'lganini anglaymiz. Misol tariqasida hazrat Amir Alisher Navoiyni hayotini yodga olish mumkin. Alisher Navoiyning avliyolarning avliyosi, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoirlarning sultoni bo'lib yetishishida temuriy malikalarning ham beqiyos o'rnini bo'lgan. O'zFA O'zbek tili va adabiyoti folklor instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi Burobiya Rajabovaning ma'lumot berishicha Alisher Navoiy bolalik davrlarida onasi bilan birgalikda saroydagi ma'naviy-marifiy tadbirlarda ham ishtirok etgan. Shuning Alisher Navoiy asarlarida ham temuriy malikalar haqida ko'plab ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Sohibqiron Amir Temur Samarqandda o'zining suyuqli umr yo'ldoshi Bibixonimga atab masjid qurdiradi va masjid Bibixonim nomi bilan ataladi. U Saroymulxonim ham deba atalib, saroydagi barcha malikalardan ustun hisoblanganligi bois, "katta xonim" degan unvonga sazovor bo'lgan edi. Bibixonim idrokli, farosatli, tadbirkor, maslahatdosh, yetuk aql-zakovat sohibasi bo'lgan. Bibixonim insonparvar, vatanparvar, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lgan. Saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma'rifatga alohida e'tibor berar, tolibi ilmlarga homiylik qilardi. Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida ko'pincha hamrohlik qilgan. Bibixonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o'zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Bibixonimga oshkora bo'ysunmasa-da, biroq uning oqilona maslahatlariga o'zida qandaydir ehtiyoj sezib turganligi haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bibixonim ham Amir Temur singari bunyodkor shaxs bo'lganligi yaxshi ma'lum. U o'z hisobidan Bibixonim madrasasini qurdirgan. Farzandi bo'lmagan bo'lsada, shahzodalarni tarbiyalashday muhim vazifa Bibixonimga topshirilgan edi. Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Mirzo Ulug'beklar Bibixonimning tarbiyasini oladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa qilib aytish mumkinki, oila qurish bilan inson nafaqat o'ziga yaxshilik qiladi, shu bilan birga butun bir jamiyatga Mirzo Ulug'bek kabi yetuk olimlarni yetkazib berish imkoniyatiga ham erishadi. Amir Temur Ko'ragoniy oila qurishi bilan butun dunyoga dong'i ketgan zurriyotlarni

qoldirdi. Temuriyar hukmronligi davrida ko'plab allomalar, olimlar yetishib chiqdi. Temuriylar sulolasini keyinchalik Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasining vakillari Hindistonda davom ettirdilar. Natija o'laroq bir oiladan tarqalgan bir sulolaning qoldirgan ilmiy, madaniy merosini butun dunyo e'tirof etib, hali-hamon o'rganib kelmoqda. Yuqoridagilar ayrim misollar edi. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shuning uchun ham muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy oila qurishga targ'ib qilgan va yana bu haqda quyidagicha yozib qoldirgan edi: "Aning uchun har bir o'g'ul va qiz bolag'a lozimdurki, shar'iy va hifzi sihat kitoblarini taklifig'a muvofiq uylanib, ro'zg'or egasi bo'lmoqni doim o'zini yagona murod va matlubi tutub, shariat va hifz ul-sihatni zavjiyat to'g'rusig'a buyuraturgan odob va sharoitini o'rnig'a kelturmoq va oyandag'a amal qilmoq uchun bilgay"².

Yuqorida oila qurishning zarurligi haqidagi ma'lumotlar keltirildi. Shuni ham anglashimiz zarurki, oila qurmaslik ham zarar hisoblanadi. Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Uylanmaslikni zarari" nomli maqolasida "Zamoni kelib, ammo uylanmay, vaqtini mujarradlik ila o'tkaraturgan er va qiz bolalar uchun bu mujarradlik, nihoyat ko'b jismoniy va botiniy kasal va yomonliklarni paydo qiladur". Muftiy Mahmudxo'ja tomonidan keltirilgan fikrlardagi "mujarradlik" so'zi arab tilidagi مُجَرَّدُ ("mujarrad") so'zidan olingan bo'lib, "yolg'iz" degan ma'noni anglatadi. Tasavvufda "toqlik", "bo'ydoqlik" ma'nolarida qo'llaniladi. Muftiy Mahmudxo'ja oila qurish vaqti kelsayu, lekin oila qurmasdan yolg'izlikda hayot kechirayotgan yigit qizlar uchun bu yolg'izliklari jismoniy va ruhiy kasalliklarning paydo bo'lishiga olib kelishini uqtiradi. Oila qurganlar va oila qurmaganlarning farqi haqida ham qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Biz oila qurmaslikni ziyon deb aytdik. Ushbu fikrimizni muftiy Mahmudxo'ja keltirgan quyidagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi: "Dunyo mahkamalari va do'xturlaridan ma'lum bo'ladurki, korxonayi olamg'a paydo bo'laturgan jinoyat, odam o'ldurmoq va gunohlarni askari uylanmagan erlardan sodir bo'lib, uylik kishilardan paydo bo'lgan jinoyat va gunohlarning oldig'a nihoyat ozdur". Dunyo mahkamalari deyilganda jamiyatdagi jinoyatchi shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortadigan sud mahkamalari ko'zda tutilgan. Demak sud mahkamalari va shifokorlarning ma'lumotiga ko'ra, odam o'ldirshdek qabihliklar, barcha jinoyatlar oila qurmagan shaxslar tomonidan sodir etilar ekan. Muftiy Mahmudxo'ja qo'llagan "uylik kishilar" so'zlaridan oilali shaxslar haqida so'z ketayotganini va jinoyatlar oila qurgan shaxslar tomonidan oila qurmaganlarga nisbatan nihoyatda kam sodir bo'lishini anglaymiz. Yana ayollar haqida ham so'z yuritgan muftiy Mahmudxo'ja "erlik xotunlardan paydo bo'laturgan jinoyatlar ersiz xotunlardan paydo bo'laturgan gunoh va jinoyatlar oldig'a yo'q hukmidadir" deb aytadi. Shunindek, oila qurgan ayollar sodir qilgan jinoyatlardan oila qurmagan ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ikki marta ko'pligini ham keltiradi. Oila qurmaslikning zararini boshqa mamlakatlar misolida ham keltiradi. "Fransiya, Gollandiya va boshqa mamlakatlarga qilingan hisob va tahqiqlardan ma'lum bo'ladurki, bir toifa uylik odamlardan yuz kishi o'lganda, uylanmaganlardan 169 nafar va uyi singanlardan 281 nafar o'lubdur"³ deb

² Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademnashr, 2021. 191-192-bet

³ Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademnashr, 2021. 197-bet

yo'zadi muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy. Kishi vaqti kelib vafot etadi. Oila qurgan 100 ta kishi vafot qilganda oila qurmaganlardan 169 nafar, oila qurib keyin ajrashib, yana oila qurmasdan hayotini davom ettirayotgan shaxslardan esa 281 nafar kishilar vafot etgani haqida ma'lumot berildi. "uyi singan" deganda, oila qurib, keyin ma'lum sabablarga ko'ra ajrim bo'lgan oilani tushunamiz. Demak oila qurmagan shaxslarning umri ham qisqa bo'lishi mumkigi, oila qurmaslik har bir shaxsning salomatligi uchun ziyon keltirishi mumkinligi anglashiladi. Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy yana bir zarar haqida so'zlab shunday deydi: "Nikohsiz ijtimodan hadsiz kasallar paydo bo'lub gunohi ortuqchadir". Fohishalik qilish va fahsh ishlar bilan shug'ullanoytgan odamlar har bir davrning katta muammosi hisoblanadi. "Nikohsiz ijtimodan" deganda, o'z umr yo'ldoshi bilan emas, balki o'zga shaxslar bilan er-xotinlik munosabatiga kirishish ko'zda tutilib ko'plab kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishini, o'z navbatida gunohkor bo'lib qolishi ham ma'lumot o'rnida keltirilgan. Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy oila qurmagan shaxslarda kasalliklar yuzaga kelishi haqidagi fikrlari bilan tanishib chiqdik. Aytaylik bugungi kunda butun dunyoda asosiy muammolardan biri bo'lib kelayotgan OITS kasalligi muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlayotgan kasalliklardan biriga misol bo'la oladi. Ushbu kasallik bilan asosan fohishalar va ularning mijozlari kasallanadi va ushbu kasallikning qurboniga aylanishadi. Oqibati o'lim bilan tugaydigan zarardan ham kattaroq zarar bo'lishi mumkinmi?

Shayx doktor Usmonxon Alimov yuqorida keltirilgan Qur'oni Karimning "Nahl" surasi 72-oyati haqida so'zlab, "Oilada farzand tarbiyasi" asarida oila qurishdan maqsad nima ekanligini quyidagicha bayon qiladi: "Insonlar uchun juftini yaratishdan maqsad farzandlar va ulardan nabiralardek ko'zni quvontiradigan ne'matlarni paydo qilganini bayon etdi. Demak, Alloh taolo ushbu yo'l bilan insonlarning naslu nasabi davom etishini iroda qildi. Mo'minlarning oila qurishdan asl maqsadlari ham aynan shunday bo'lishi lozim". Demak oila qurgan shaxs nasabini saqlab qoladi. Oila qurmagan shaxsning nasabi saqlanmaydi ham. Bu oila qurmaslikning yana bir eng katta zararlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayx Usmonxon Temurxon o'g'li Samarqandiy. Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimai. Turkiya, Ankara, 2021.
2. Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademnashr, 2021.- 312 b.